

**CHORVACHILIK BILAN BOG'LIQ AN'ANALARDA  
ETNOEKOLOGIK QARASHLAR**

**ETHNO-ECOLOGICAL VIEWS IN THE TRADITIONS RELATED TO  
ANIMAL HUSBANDRY**

**ЭТНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ТРАДИЦИЯХ,  
СВЯЗАННЫХ С ЖИВОТНОВОДСТВОМ**

**Isxakov Bexzod Barkamalovich,**

Namangan muhandislik-qurilish instituti ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya:** Maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining chorvachilik bilan bog'liq etnoekologik qarashlari ilmiy manbalar va etnografik dala yozuvlari asosida qisqacha tahlil etilgan. Maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining chorvachilik bilan bog'liq etnoekologik qarashlariga oid ilmiy xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi o'zbeklari, chorvachilik, etnoekologik qarashlar.

**Аннотация.** В статье на основе научных источников и этнографических полевых материалов кратко анализируются этноэкологические взгляды узбеков Ферганской долины на животноводство. В статье излагаются научные выводы относительно этноэкологических взглядов узбеков Ферганской долины, связанных с животноводством.

**Ключевые слова:** Узбеки Ферганской долины, животноводство, этноэкологические взгляды.

**Annotation:** The article briefly analyzes the ethno-ecological views of Fergana Valley Uzbeks related to animal husbandry based on scientific sources and ethnographic field records. The article describes the scientific conclusions regarding the ethno-ecological views of Fergana Valley Uzbeks related to animal husbandry.

**Key words:** Fergana Valley Uzbeks, animal husbandry, ethno-ecological views.

Chorvachilik an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlarining eng qadimiy ko'rinishlaridan va inson tirikchilik manbaini belgilovchi asosiy mehnat turlaridan biri hisoblanadi. Chorvadorlarning turmush tarzi va ushbu mashg'ulot bilan bog'liq qarashlar, urf-odatlar etnografik materiallar asosida ma'lum darajada o'rganilgan [1.].

Chorvachilik Farg'ona vodiysi aholisi xo'jalik faoliyatining qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysi etnik guruhlarining har birida uy hayvonlarini boqish va parvarishlashning o'ziga xos usullari shakllangan.

Mazkur ilmiy muammoni tadqiq etish jarayonida chorvachilik xo'jaligining qadimdan shakllangan bir qancha tiplarini uchratamiz. Bular, yarim o'troq chorvachilik yoki o'troq xo'jalikning bir sohasi sifatida chorvachilik bo'lishi mumkin. Qadimdan o'troq aholi orasida chorva boqishning qo'ra yoki qo'ra yaylov tizimi, ko'chmanchi aholida esa yaylov tizimi ustun turgan.

Xullas, o'zbek chorvadorlari qadim zamonlardan xo'jalik yuritishda boy tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lib kelganlar. Chorvadorlarda o'sha davrlardayoq shakllangan xo'jalikka oid bilimlar ajdoddan avlodga meros tariqasida o'tib kelgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, chorvadorlar uchun chorva hayvonlari sog'ligi doimo muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi davrdagidek zootexnika va veterinariya xizmatining yo'qligiga qaramasdan, chorvadorlar uy hayvonlarini o'ziga xos usul va yo'llar bilan davolashga harakat qilganlar. Ularning ayrim ko'rinishlari hozir ham chorvadorlar orasida keng qo'llaniladi.

An'anaviy chorvachilik va uning tipologiyasi (klassifikatsiyasi)ni o'rganish usullari, yo'llari turli xil, ayniqsa, ushbu sohadagi xulosalar turli munozalarga sabab bo'lgan [ 2. 42]. Bizningcha, mutaxassislar chorvachilik turlarini ekologik omillariga alohida e'tibor qaratmaganlar. Ammo, turlarning tarixiy dinamikasi tahlil qilindi, ya'ni ularning evolyutsion muhiti va insonlar xo'jalik faoliyati natijasidagi o'zgarishlari ta'sirini o'rganib chiqilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, chorvachilik juda qadimiy mashg'ulot turi bo'lib, insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab chorva bilan bog'liq kultlar, e'tiqodlar xalqlar turmush tarzida muhim ahamiyat kasb etgan hamda odamlar ularga sig'inganlar. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesta"da chorvaga, ayniqsa, ot, qoramol hamda mayda tuyoqli uy hayvonlariga e'tiqodiy munosabat izohlangan. Chorvadorlar imonli hisoblangan [ 3.45]. Jumladan, "Avesta" matnlarida mayda mollarga homiylik qiluvchi iloh Frodat-Fshova nomi bilan zikr etilgan [4.343]. Zardusht Axuramazdadan "Hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi to'rtinchi joy qayer? "Avesta"- deb so'raganida,

Axuramazda: “Bunday joy qo‘ylar suruvi va tevalar uyuri eng ko‘p parvarish qilinadigan zamindir “Avesta”, deb javob bergan [3.113]. Shuningdek, “Avesta”ning birmuncha keyingi qismlari hisoblangan “Xorda Avesta”da “Ayatrima”, ya’ni “Chorvani otarlarga qaytarish bayrami” o‘tkazilganligi haqida ma’lumotlar bor [ 5.10].

Farg‘ona vodiysi chorvadorlari orasida ham aynan cho‘pon yili kirib kelishi bilan chorva qishlov joylaridan yozgi yaylovlarga olib chiqilgan. Qolaversa, o‘ziga xos femonologik kuzatuv ham chorvachilikda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, Shimoliy Farg‘ona cho‘ponlari erta bahorda “navro‘z chumchuq” deb ataluvchi qushning uchib kelishi vaqtiga va uning rangiga e’tibor berishgan: agar u oq rangli bo‘lsa, yog‘ingarchilik kam bo‘ladi, sariq tusli bo‘lsa, yomg‘ir ko‘p yog‘adi, deb ta’bir qilishgan [6.1137-138]. “Navro‘z chumchuq” cho‘ponlarning yoz davomida doimiy hamrohlari hisoblanadi. Kuzda o‘sha qush hadeb o‘zini suruv ichiga uraversa, demak yaqin orada bo‘ron turishi kuzatilgan. Buni yaxshi bilgan cho‘pon chorvani tezroq pastga olib tushishga harakat qilgan [7.]. Bundan tashqari, mahalliy cho‘ponlar yozgi yaylovga ko‘chishda hafta kunlariga ham alohida e’tibor berganlar. Chunonchi, ular chorvani yaylovga olib chiqish uchun haftaning hosiyatli kunlari deb e’tirof etilgan- chorshanba va shanba kunlari tanlangan [8.20]. Chorvadorlar nazdida haftaning boshqa kunlari, ayniqsa, juma kuni ko‘chish xosiyatsiz hisoblangan. Chunki xalqona qarashga ko‘ra, ushbu kun barcha musulmonlar kabi barcha jonzotlar uchun dam olish kuni hisoblanadi. Shu bois agarda ushbu kun yo‘lga chiqadigan bo‘linsa Allohning irodasiga qarshi boriladi va biror bir falokatga yo‘liqish mumkin, deyilgan.

Har yili chorvani yaylovga olib chiqib ketishdan avval cho‘ponlar piri Cho‘pon ota va chorva piri Zangiotaga [9.40-41] bag‘ishlab qurbonlik qilinib, «is» chiqarilgan. Elshunos K. Shoniyozovning yozishicha, Farg‘ona vodiysi qipchoqlarida qo‘ylar yaylovga ketayotganida marosimiy qurbonlik qilingan va qishloq mullasi tomonidan cho‘ponlar piri Cho‘ponotaga bag‘ishlangan risola o‘qib berilgan [10.200].

Azaliy turmush tarzi chorvachilik bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qipchoqlarida chorvani yozgi yaylovga olib chiqish va yozgi yaylovdan qishlov yeriga olib qaytishda qator afsungarlik rasm-rusumlari va urf-odatlarini o‘tkazilgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, suruvning bir joydan ikkinchi yerga ko‘chishi eng mas’uliyatli davr hisoblangan. Shu bois ular bu paytda chorvani turli ziyon-zahmatlardan poklab ko‘chirishga harakat qilganlar. Bunda toqqa ketayotgan qo‘y-qo‘zilarni yovuz kuchlar, yomon ko‘zlardan saqlash maqsadida cho‘ponlardan biri qo‘lida gulxan ushlagan holda suruvni aylanib chiqqan va

qo'ylarni olov yordamida poklagan. Chust tumani Ariqbo'yi, Sariqamish, Karkidon qishloqlarida yashovchi qipchoqlar chorvani toqqa haydab ketishda va tog'dan olib tushishda ham qo'y-qo'zilarga oq va qora rangdagi latta kuydirib alas-alas qilib, isiriq solganlar. Alas qilishda ayollar "yangi yurtda yallo qolsin, eski yurtda balo qolsin", degan aytimni aytib turganlar. Andijon viloyati Jalolquduq tumani Karmish qishlog'ida yashovchi qirg'iz-qipchoqlarda esa chorva yaylovga olib ketilayotganda qishloq mullasi tomonidan Qur'on kitobi ochiq holda ushlab turilgan va uning tagidan qo'ylar hamda cho'ponlar o'tkazilgan.

Demak, bundan shuni ko'rish mumkinki, qo'y-qo'zilarni yaylovga haydash va yaylovdan qishlov joyiga qaytish paytida cho'ponlar jonivorlarini ziyon-zahmat va yomon ko'zli kishilardan asrash uchun olov, isiriq va Qur'on kitobi yordamida poklaganlar [11.123]. Shuningdek, cho'ponlar piri Cho'ponotaga bag'ishlab is chiqarish va cho'ponlar risolasini o'qish amallarida ham islomiy qarashlarni islomgacha bo'lgan e'tiqodiy kultlar bilan sinkretlashgan ko'rinishini ko'ramiz.

Vodiy qipchoqlarida qoramollar sutini oshirishga qaratilgan qator afsungarlik udumlari ham bajarilgan. Jumladan, Chust tumani Ariqbo'yi qishlog'ida sigir birinchi marta bolalaganda uning dumiga oq rangli ro'mol bog'lanib ustidan bir paqir suv quyiladi. Andijonda esa sigir yil bo'yi sut berishi uchun buzoq tug'ilgan zahotiyuq ayol kishi boshiga bir uchi yerga tegib turgan uzun oq ro'mol o'ragan holda sigirni sog'ishi lozim bo'lgan. Ushbu xatti-harakatlar zamirida cigir uzoq vaqt sog'in bo'lsin, degan magik niyat mujassamlashgan [12].

Kosonsoy tumani qipchoqlarida agar sigirning yelini tug'ishdan avval yoki tuqqandan keyin qattiq bo'lib, misoli toshga o'xshab qotib qolsa yelin murdasha'ylarning marhumlarni yuvishda ishlatgan qo'lqopi yoki qayroqtosh bilan silab tekkizish orqali davolangan. Bunda murdasha'yning qo'lpaypog'i yomon narsalarni daf qilish xususiyatiga ega deyilgani bois ham undan foydalanilgan. Qayroqtosh aynan qattiq bo'lganligi bois "qayroq qayroqda bo'ladi. Sigirning yelinida nima qilasan?"- deb tekkizilar ekan. Aynan mazkur amalni ham uch marta qilingandan keyin sigir yelinidagi qattiq narsa yo'q bo'lib ketar ekan. Bizningcha, bu amallar ham ma'lum ma'noda afsungarlik bilan bog'liq bo'lib, ushbu narsalar magik xususiyatga ega degan qarashlar mazkur irimlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak.

Cho'ponlarning asosiy ish quroli bo'lgan cho'pon tayog'i va kiyimi ham o'ziga xos magik xususiyatga ega hisoblanadi. Cho'pon tayog'i odatda pishiq

bo'lgan "chetan" yoki "qizil tut" daraxtidan qilinadi. Cho'pon tayog'i muqaddas hisoblanganligi bois cho'pon bo'luvchi shaxs cho'pon tayog'iga ega bo'lish uchun qurbonlik qilib, biror bir hayvonni so'yg'an va shundan keyingina u cho'pon tayog'iga ega bo'lgan. O'z navbatida tayoqdan boshqa narsa bilan hayvonlar urilmagan va tayoqni bosish gunoh hisoblangan. Agar shu tayoq ustidan sigirlar o'tib qolsa biror dardga chalinadi va aynan o'sha tayoq bilan kasal hayvon silab davolanishi kerak deyilgan. Shu mulohazaga binoan cho'ponlar tayoqlarini doimo o'zlari bilan olib yurganlar va oyoq ostiga emas, chetroqqa qo'yishga harakat qilganlar.

Chorvachilik bilan bog'liq an'anaviy urf-odat va marosimlar yakunida xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, vodiya o'zbeklari orasidagi chorvachilik bilan bog'liq an'analar o'zining qadimiy asoslariga ega ekanligi va ularning aksariyatida mintaqa aholisining qadimiy diniy tasavvurlari bilan bog'liq qarashlari mujassamlanganiga amin bo'ldik.

Albatta, Farg'ona vodiysida chorvachilik an'alarining saqlanib qolishi tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, chorva mahsulotlariga aholining ehtiyoji kattaligida edi. Shuningdek, bu holatni ko'chmanchi chorvachilik an'alarining asrlar davomida o'troq dehqonchilik sharoitiga moslashgan shakli edi, degan xulosaga kelish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Токарев С. А. Обычаи, обряды и поверья, связанные с животноводством / Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы. – М., 1983. – С. 90–98. Сейткулова Ж. Б. Обычаи и обряды казахов, связанные с традиционным скотоводством. АКД. – Алмата. 2002; Бўриев О. Кўйчилик удумлари / Ўзбек халқи боқий қадриятлари. – Қарши, 2005.– Б. 40–50; Саримсоқов А. А. Шимолий Фарғона қипчоқларининг чорвачилик билан боғлиқ маросим ва урф-одатлари / Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этник жараёнлар. 2-китоб. – Т., 2005. – Б. 137-138.
2. Андрианов Б. В. Неоседлое население мира. – М.: Наука, 1985. – С. 42.
3. Исҳоқов М. "Авесто"да чорва ва чорвадорлар / Ўзбекистон худудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. – Т., 2006. – Б. 45.
4. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: "Шарқ", 2001. – Б. 343.
5. Аширов А. "Авесто" дан мерос маросимлар. –Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001. – Б. 10.

6. Саримсоқов А. А. Шимолий Фарғона қипчоқларининг чорвачилик билан боғлиқ маросим ва урф-одатлари / Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этник жараёнлар. 2-китоб. – Т., 2005. – Б. 137–138.
7. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Kaklikqo'rg'on qishlog'i. 2014-yil.
8. Устаев Ш. У. Дни недели в поверьях народов Южного Узбекистана. Труды Байсунской научной экспедиции. Археология, история и этнография. Выпуск 3. – Тошкент, «SAN'AT» 2007. – С. 20.
9. Мирхасилов С. М. К изучению реликтов доисламских верований у узбеков дореволюционном прошлом / Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – С. 160–162; Муминов А. Занги-ата / Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып. 3. – М., 2001. – С. 40–41.
10. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, Фан, 1974. – С. 200.
11. Дыренкова Н. П. Культ огня у алтайцев и телеут // Сб. МАЭ, Т. VI, – Л, 1927.; Буганаев В. Я. Культ огня у хакасов // ЭО. – 1998. – №3. – С. 25–35; Мейтарчиан М. Культ огня в Иране и Средней Азии / Древние цивилизации Евразии. История и культура. Тезисы докладов международной научной конференции. – М., 1998. – С. 123.
12. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Kosonsoy tumani Rovot qishlog'i. 2016-yil.